

Kimyogarlarning kuni muborak!

Ma'lumki, har yili may oyining oxirgi yakshanbasida nishonlanadigan ushbu kun kimyo sanoati va fani xodimlarining kasb bayrami hisoblanadi. Bu bayram, MDH ga kiruvchi – Rossiya, Ukraina, Qozog'iston, O'zbekiston va boshqa davlatlarda keng miqyosda nishonlanadi. An'anaga ko'ra, kimyogarlarning kuni, odatda, may oyining so'nggi yakshanbasida bayram qilinadi. Bu yilgi Kimyogarlarning kuni may oyining so'nggi kuniga to'g'ri keldi. Aytish joizki, mazkur kasb bayrami 1965 yildan beri nishonlab kelinadi. Moskva davlat universiteti talabalari tomonidan 1966 yilda taklif etilgan g'oyaga ko'ra, kimyogarlarning kuni har yili Mendelyev kimyoviy elementlar davriy jadvalidagi elementlardan biri nomi ostida nishonlanish an'anasi yuzaga kelgan.

Bugun O'zR FA Umumiy va noorganik kimyo institutida "Kimyogarlarning kuni" ga bag'ishlangan tadbir o'tkazildi. Ushbu tadbirda institut yoshlari, doktorant va tadqiqotchilari tomonidan tashkillashtirilgan "3-renesans yoshlari", "Kristall", "Intelekt", "Smart" jamoalari qiziqarli kimyoga oid savol-javoblarda o'z bilimlari bilan bellashdilar, shuningdek tadbirda qiziqarli kimyoviy tajribalar, badiiy qism o'tkazilib barchaga bayramona kayfiyat ulashildi. G'oliblar va faol ishtirokchilar institut direktori va kasaba uyushmasi tomonidan faxriy yorliq, tashakkurnoma va sovg'alar bilan taqdirlanishdi.

Shu munosabat bilan mamlakatimizda kimyo yo'nalishida faoliyat yuritayotgan barcha kimyogarlarni kasb bayrami — «Kimyogarlarning kuni» bilan tabriklaymiz! Barchalariga ilm-fan rivoji yo'lida olib borayotgan fidokorona faoliyatlarida yangi yutuq va omadlar tilab qolamiz.

k.f.d., professor Kuldasheva Sh.A.



